



## RAQAMLI TA'LIM VA UNING YOSH AVLOD TAFAKKURIGA TA'SIRI

**Murodulloyeva Nasiba Nurulloevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
Pedagogika fakultiteti, 108-BT-2 kurs-talabasi  
nasibamurodulloeva1@gmail.com  
+99897 1911886  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17333200>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli ta'limning mazmun-mohiyati, afzalliklari va mavjud muammolari keng yoritiladi. Shuningdek, raqamli ta'limning yosh avlod tafakkuriga ta'siri, ijodiy qobiliyat va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada ilmiy adabiyotlar asosida iqtiboslar keltirilib, raqamli ta'limning istiqbollari ham ko'rib chiqiladi. zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti jarayonida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlash masalalari yoritilgan. Texnologik yutuqlar o'quvchilarning bilim olish, dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga, ularning ma'naviy qadriyatlarini saqlashda pedagog va ota-onalarning mas'uliyatini oshiradi.

**Kalit so'zlar** raqamli ta'lim, yosh avlod, tafakkur, innovatsiya, axborot texnologiyalari, kreativlik, media savodxonlik.

**Аннотация:** В статье подробно рассматриваются содержание, преимущества и существующие проблемы цифрового образования. Анализируется влияние цифрового образования на мышление подрастающего поколения, его роль в формировании творческих способностей и навыков самостоятельного мышления. Приводятся ссылки на научную литературу и рассматриваются перспективы цифрового образования. В статье рассматриваются вопросы обеспечения духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения в условиях развития современных технологий. Технологический прогресс, наряду с расширением кругозора и мировоззрения учащихся, повышает ответственность педагогов и родителей за сохранение их духовных ценностей.

**Ключевые слова:** цифровое образование, подрастающее поколение, мышление, инновации, информационные технологии, креативность, медиаграмотность.

**Abstract:** This article extensively covers the content, advantages and existing problems of digital education. It also analyzes the impact of digital education on the thinking of the younger generation, its role in the formation of creative abilities and independent thinking skills. The article provides citations based on scientific literature and considers the prospects of digital education. The article covers the issues of ensuring the spiritual and moral education of the younger generation in the process of development of modern technologies. Technological advances, along with the expansion of students' knowledge and worldview, increase the responsibility of teachers and parents in preserving their spiritual values.

**Keywords:** digital education, young generation, thinking, innovation, information technologies, creativity, media literacy.

XXI asr - bu raqamli texnologiyalar asri bo'lib, hayotimizning barcha sohalarida chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois raqamli ta'lim



tushunchasi tobora keng qo'llanilib, ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarni zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarini egallashga qaratilgan ta'lim tizimini tashkil etish - mamlakatimiz kelajagi poydevorini mustahkamlash demakdir" (Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2021. - B. 142). Demak, yosh avlodni raqamli bilimlar bilan qurollantirish, ularning tafakkurini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish - bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Masalan, Raqamli ta'lim - bu faqatgina kompyuter yoki internetdan foydalanish emas, balki bilim olish jarayonini samarali, tezkor, interfaol va keng qamrovli qilish imkonini beruvchi yangicha ta'lim shaklidir. Unda o'quvchilar bilimlarni faqat tayyor holda emas, balki mustaqil izlanish, mantiqiy tahlil qilish orqali ham o'zlashtiradilar.

Raqamli ta'lim tushunchasi va uning o'ziga xosligi raqamli ta'lim - bu ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari, mobil ilovalar, multimedia vositalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan tizimdir. U an'anaviy ta'limdan bir qator jihatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, raqamli ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalar bilimlarni nafaqat o'qituvchi orqali, balki global tarmoqdan, elektron kutubxonalar va onlayn kurslardan ham olishlari mumkin. Pedagog olim A. Qodirov yozadi: "Raqamli ta'lim ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchi va talabalarda kreativ fikrlashni kuchaytiradi, bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi" (Qodirov A. Raqamli ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - B. 87). Demak, raqamli ta'lim - bu nafaqat vosita, balki butun boshli yangi pedagogik yondashuv bo'lib, u yoshlarni global dunyoqarash, ijodiy tafakkur va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga xizmat qiladi. Raqamli ta'limning yosh avlod tafakkuriga ta'siri raqamli ta'limning eng muhim natijalaridan biri bu - yosh avlod tafakkurining zamonaviy shakllanishidir. Raqamli vositalardan foydalanish ularni mustaqil o'qib-o'rganishga, o'z fikrini asoslashga, tanqidiy yondashuvga undaydi.

Yoshlar tafakkuri raqamli ta'lim vositasida quyidagicha rivojlanadi:

- mustaqil bilim olish ko'nikmalari shakllanadi;
- tanqidiy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi;
- tezkor qaror qabul qilish qobiliyati ortadi;

• ijodkorlik va kreativ yondashuv kuchayadi.

N. Abduqodirova shunday deydi: "Raqamli savodxonlik yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asosiy shartlardan biridir" (Abduqodirova N. Yoshlarning raqamli savodxonligini rivojlantirish muammolari. // Ta'lim va innovatsiya. - 2022. - №4. - B. 55). Demak, yosh avlod tafakkuri raqamli ta'lim orqali yangi bosqichga ko'tariladi. Raqamli texnologiyalar - narsalar interneti (Internet of Things, IoT). Raqamli axborotga asoslangan

asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar internetidir. Ko'pgina maishiy texnikaning elektr tarmog'iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko'proq ob'ektlari Internetga ulanadi, bu esa ma'lumot to'plash va hatto ushbu ob'ektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi

### **Raqamli ta'limning afzalliklari va salbiy jihatlari**

Raqamli ta'lim o'zida bir qator afzalliklarni mujassam etgan:

- bilim olish imkoniyatining kengligi;
- darslarni masofadan turib ham o'rganish imkoniyati;
- vaqtni tejash;
- fanlarni chuqur va mustaqil o'rganish imkoniyati.

Shu bilan birga, raqamli ta'limning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud:

- internetga qaramlik kuchayishi;
- yuzma-yuz muloqotning kamayishi;
- kitob o'qishga qiziqishning pasayishi.

R. Xo'jayev ta'kidlaydi: "Texnologiyalar o'qituvchini almashtira olmaydi, ammo uning ishini yengillashtiradi va ta'lim jarayonini tezkorlashtiradi" (Xo'jayev R. Raqamli texnologiyalar va ta'lim samaradorligi. // Zamonaviy ta'lim. - 2023. - №2. - B. 73).

Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu - xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Kelajakda raqamli ta'limning quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

- sun'iy intellekt asosida ta'lim dasturlari;
- virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalaridan foydalanish;
- onlayn ta'lim sifatini nazorat qilishning takomillashtirilgan tizimi;
- xalqaro onlayn ta'lim hamkorliklari.

Karimova M. o'z tadqiqotida ta'kidlaydi: "Pedagogik jarayonda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarni motivatsiya qiladi va ularning darslarga bo'lgan qiziqishini oshiradi" (Karimova M. Pedagogik jarayonda axborot texnologiyalaridan foydalanish. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. - B. 66).

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim yosh avlod tafakkurini rivojlantiruvchi eng muhim vositalardan biridir. U ta'limni tezkor, qulay va samarali qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik, innovatsion yondashuv kabi sifatlarni shakllantiradi. Biroq, raqamli ta'limdan foydalanishda uning salbiy jihatlari qarshi kurashish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va an'anaviy ta'lim qadriyatlarini ham saqlash zarur. Shuningdek, raqamli ta'limning istiqbollari uning yanada keng ko'lamda qo'llanilishini taqozo etmoqda. Raqamli ta'lim yosh avlod tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantiradi, mustaqil izlanishga undaydi va global raqobatbardoshlikka tayyorlaydi. Shu bilan birga, raqamli ta'limni joriy etishda pedagogik yondashuv, ota-ona nazorati va milliy qadriyatlarga e'tibor ham muhim hisoblanadi. Raqamli ta'lim yosh avlod tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo'lib, ularda mustaqil fikrlash, tezkor axborot izlash va interaktiv metodlar orqali ijodkorlikni shakllantiradi. Shu bilan birga, nazorat qilinmasa, yoshlarning fikrlash qobiliyatida yuzaki yondashuv kuchayishi mumkin. Shu sababli raqamli ta'limni joriy etishda muvozanatli yondashuv, pedagoglarning doimiy malaka



oshirishi va sifatli kontent yaratish zarur. Raqamli ta'lim bugungi davrning ajralmas qismi bo'lib qoldi, ayniqsa pandemiya davrida ta'lim jarayonini uzluksiz davom ettirish uchun muhim vosita bo'ldi. U yosh avlodning tafakkur, diqqat va ijodkorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin bu samaraga erishish uchun infratuzilma, raqamli savodxonlik va pedagoglarning malakasi muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida, raqamli ta'limni keng joriy etishda hududiy tafovutlarni kamaytirish, sifatli resurslarni ta'minlash va o'qituvchilarga doimiy malaka oshirish zarur. Agar bu yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilsa, raqamli ta'lim yoshlar tafakkurini rivojlantirishda katta omil bo'lishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 384 b. (B. 142).
2. Qodirov A. Raqamli ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - 212 b. (B. 87).
3. Abduqodirova N. Yoshlarning raqamli savodxonligini rivojlantirish muammolari. // Ta'lim va innovatsiya. - 2022. - №4. - B. 55.
4. Karimova M. Pedagogik jarayonda axborot texnologiyalaridan foydalanish. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. - 176 b. (B. 66).
5. Xo'jayev R. Raqamli texnologiyalar va ta'lim samaradorligi. // Zamonaviy ta'lim. - 2023. - №2. - B. 73.
6. Amirqulov, A. (2023). HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA O'RTA ASRLAR SHARQ MUTAFAKKIRLARI MA'NAVIY MEROSINING ROLI. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 3), 76-79.